Deyarli har kuni ommaviy axborot vositalarida bino-inshootining buzilishidan norozi bo'lgan tadbirkor yoki fuqaroning norozi kayfiyatdagi chiqishlariga guvoh bo'lyapmiz. Aksar holatlarda imoratni buzish jarayoniga aralashish uchun hayotini xavf ostiga qo'yayotganlarni ham kuzatamiz. Samarqandda muhokamalarga sabab bo'lgan "qo'ziqorin mehmonxonasi"dan tortib Qo'qon shahrida vayrona ostida qolgan binoda o'z mulki-


ni saqlab qolish uchun jonini xavfga qo'ygan ayol holatining bari bunday munosabatlarni tartibga solishda kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Muammolar doirasi keng qamrovli bo'lib, ilmiy tahlilimizda ularning faqatgina qonunchilik bilan bog'liq jihatlari muhokama qilinadi.

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq munosabatlar fuqarolik huquqining eng murakkab institutlaridan biridir. Mazkur masala yer huquqi, shaharsozlik huquqi hamda fuqarolik huquqi normalarining kesishgan nuqtasida shakllanadi. Shu sababli o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning huquqiy rejimini aniqlash amaliyotda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida bu munosabatlar asosan Fuqarolik kodeksining (FK) 212-moddasi (*Republic of Uzbekistan*, 1997) orqali tartibga solinadi. Mazkur norma o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat tushunchasini belgilab, bunday imoratni barpo etgan shaxsning huquqiy maqomi hamda imoratning keyingi huquqiy taqdirini aniqlashga qaratilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu norma barcha holatlarni to'liq qamrab olmaydi va uni qo'llash jarayonida turli talqinlar yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot davomida 50 dan ortiq o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarni qaytarishga doir nizolarga oid sud qarorlari o'rganildi (rasm). Natijada o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolarga ko'pincha imoratni buzish holatlarida yuzaga kelishi ayon bo'ldi. Sud ishlarining 8 tasidagina imorat o'zboshimchalik bilan qurilmagan deb topilgan va buzish to'g'risida qaror chiqarilmagan. Ikkitasida esa o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat sudga da'vo arizasi berilganidan so'ng hali ish ko'rilmadan javobgar

tomonidan o'z xohishi bilan buzib tashlangan bo'lsa, qolgan 40 ta sud ishida imoratlar, qurilmalar o'zboshimchalik bilan qurilgan deb topilgan va javobgar hisobidan buzish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilgan. O'rganilgan ishlarining birortasida mulk huquqi e'tirof etilmagan. Bunday nizolarni ko'rib chiqishda sudlar turli omillarni – yer uchastkasining huquqiy rejimi, qurilish normalari va qoidalariga rioya etilganligi, uchinchi shaxslarning huquqlari buzilgan-buzilmaganligi kabi masalalarni baholagan.



- Da'vo qanoatlantirilgan va buzish haqida qaror chiqarilgan
- Da'vo arizasidan so'ng ixtiyoriy buzilgan
- O'zboshimchalik bilan qurilmagan deb topilgan
- Mulk huquqi e'tirof etilgan

Rasm. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarni qaytarishga doir 50 ta nizo natijalari

Metodlar

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning huquqiy rejimi borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu masalaga o'zbek olimlaridan I. Zokirov, H. Rahmonqulov, O. Oqyulov, N. Imomov, V. Topildiyev kabilar umumiy to'xtalgan. MDH mamlakatlaridan K. Guktayev, A. Latyev, V. Kudryavseva, P. Shishkanov, A. Kuznetsov, A. Ivanenko, A. Savina kabilarning ilmiy ishlari o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratning huquqiy rejimi va unga nisbatan mulk huquqini e'tirof etishdagi muammolarga bag'ishlangan.

Yevropa Ittifoqi davlatlaridan Z. Zegarac, A. Tanasescu, B. Romano, P. Berdini, J. Abbott kabilarning ishlarida noqonuniy qurilmalarning huquqiy tartibotiga oid ayrim jihatlarini ko'rish mumkin.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, sud amaliyotini o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar

bilan bog'liq 50 dan ortiq sud qarorlari o'rganilib, ularning asosiy tendensiyalari tahlil qilindi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga (Republic of Uzbekistan, 1997) ko'ra, o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat deb, tegishli ruxsatnomasiz yoki yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud bo'lmagan holda, shuningdek, qurilish normalari va qoidalarini buzgan holda barpo etilgan bino yoki inshoot tushuniladi. Mazkur o'zboshimcha qurilish belgilari ro'yxati to'liq (yopiq) hisoblanadi. Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'zboshimcha qurilishning qo'shimcha asoslarini belgilashga haqli emas. FK normasi bunday imoratni barpo etgan shaxsning unga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritmasligini legallashtiradi.

Qonunchilikka muvofiq, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan asosiy huquqiy oqibat sifatida uni buzish chorasi qo'llanadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda sud tomonidan bunday imoratga nisbatan mulk huquqini tan olish masalasi ham ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda sud yer uchastkasiga bo'lgan huquqning mavjudligi hamda boshqa shaxslarning huquqlari buzilmaganini inobatga oladi.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolarda ko'pincha imoratni buzish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Xususan, o'rganilgan 50 dan ortiq sud qarorlarining katta qismida imorat o'zboshimchalik bilan qurilgan deb topilgan hamda uni buzish majburiyati yuklatilgan. Bu esa mazkur institutning amalda qo'llanishida buzish chorasi ustuvor ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda sudlar turli huquq tarmoqlariga oid normalarni qo'llashiga to'g'ri keladi. Chunki mazkur munosabatlar faqat fuqarolik huquqi bilan emas, balki yer huquqi, shaharsozlik huquqi va ma'muriy huquq normalari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Natijada ushbu institutning huquqiy rejimi murakkab va ko'p qatlamli tusga ega bo'lib qoladi (Aliverdieva, 2022).

Muhokama

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu institutni huquqiy tartibga solishda

bir qator tizimli muammolar mavjud. Mazkur muammolar asosan amaldagi qonunchilikdagi ayrim noaniqliklar, huquqni qo'llash amaliyotining bir xilda shakllanmaganligi hamda ushbu munosabatlarning murakkab huquqiy tabiatiga bog'liqdir.

Amaldagi qonunchilikda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqini tan olish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lsa-da, bunday huquqni tan olishning aniq mezonlari yetarli darajada belgilab qo'yilmagan. Natijada sudlar tomonidan turli yondashuvlar qo'llanmoqda.

Ayrim hollarda sudlar yer uchastkasiga bo'lgan huquq mavjudligi hamda qurilish normalariga jiddiy zarar yetkazilmaganini asos qilib olib, mulk huquqini tan olgan bo'lsa, boshqa hollarda o'xshash vaziyatlarda imoratni buzish to'g'risida qarorlar qabul qilingan. Bu esa sud amaliyotida barqarorlikning yetishmasligiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'rib chiqilgan sud ishlarining aksariyatida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzish to'g'risida qarorlar qabul qilingan. Bunday yondashuv, bir tomondan, qurilish sohasida qonuniylilikni ta'minlashga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Qonunchilikdagi yana bir kamchilik – o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish bo'yicha talablar uchun maxsus da'vo muddati belgilanmaganligidir. Bu esa bunday nizolarni ko'rib chiqishda muayyan huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Masalan, ayrim hollarda imorat qurilganidan keyin uzoq vaqt o'tib, hatto bir necha yillardan so'ng ham uni buzish to'g'risida da'vo qo'zg'atilishi mumkin. Bunday vaziyatlar mulk munosabatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sud amaliyotida bunday holatlar juda ko'p. Misol uchun, Samarqand tumani Jo'yisoy mahallasida fuqaro Furqat Xalilov tomonidan 2012-yilda qurilishi boshlangan mehmonxonaga (xalq orasida "qo'ziqorin mehmonxona" nomi bilan mashhur bo'lgan) nisbatan 2022-yilning 6-iyul kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq tumanlararo sudining mulkni o'z hisobidan buzish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilgan va ijro uchun yuborilgan (Kun.uz, 2022). Ijro esa 2025-yil iyul oyi oxirida boshlangan (Gazeta.uz, 2025). Bu esa ko'pchilikda shu vaqtgacha qurilishning oldini olish va oqibatini bartaraf etishga doir choralar ko'rilmagani uchun asosli tanqidlarni paydo qildi. Buni amaliyotdagi shunga o'xshash mingta holatdan biri desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Xorijiy davlatlar tajribasida bunday holatlarni tartibga solish uchun aniq muddatlar belgilangan. Masalan, ayrim davlatlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan ma'lum muddat o'tganidan so'ng uni buzish masalasi ko'tarilishi mumkin emas. Jumladan, noqonuniy qurilish bo'yicha ijro choralari qo'llash uchun Angliyada 10 yillik, Uelsda 4 yillik da'vo muddati belgilangan bo'lib, bu muddatlar o'tgach vakolatli organlar imoratni buzdirish to'g'risida talab qo'yish huquqini yo'qotadi (United Kingdom, 1990). Bunday yondashuv huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksida (Republic of Uzbekistan, 1997) o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzish bilan bog'liq talabni bajarishning eng kam va eng ko'p muddati ham belgilanmagan davlat organlarining aksar holatlarda oqilona bo'lmagan muddatlarni belgilashiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, kadastrlar palatasi va uning hududiy bo'limlari xodimlari noqonuniy qurilmani buzish bo'yicha amaliyotda shakllangan va ommaviy huquq bilan belgilangan 15 kunlik muddatni qo'llashmoqda. Masalaning muhim jihati shuki, ushbu muddat binoning murakkabligi va xususiyatlarini inobatga olmaydi. TDYU Yuridik klinikasi amaliyotida shunga o'xshash holat kuza-tildi: Andijon viloyati Buloqboshi tumani "Soybo'yi" MFYda yashovchi fuqaro A. Bayirovga tegishli yer uchastkasining o'zboshimchalik bilan egallab olingan qismini javobgar hisobidan buzish bo'yicha oqilona bo'lmagan 15 kunlik muhlat kadastr agentligining hududiy bo'limi tomonidan yozma ko'rsatmada belgilangan.

Rivojlangan mamlakatlar qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzish muddati uning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksiga (Russian Federation, 1994) ko'ra, ushbu muddat uch oydan kam va o'n ikki oydan ko'p bo'lmasligi, agar o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni belgilangan talablarga muvofiqlashtirish kerak bo'lsa, bunday muddat olti oydan kam va uch yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'zboshimchalik bilan boshlangan qurilishlarning yuzaga kelishiga ko'pincha davlat organlari tomonidan qurilish jarayoni ustidan nazoratning yetarli darajada amalga oshirilmasl原因 sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ko'plab o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar qurilish jarayoni davomida aniqlanmasdan qoladi va faqat qurilish tugallanganidan so'nggina ma'lum shaxsning yoki davlat organining arizasi bilan aniqlanadi. Natijada imorat allaqachon qurib bo'lingan bo'ladi va uni buzish katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Shuningdek, bunday holatlar ko'pincha ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Shu sababli qurilish jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, noqonuniy qurilishlarni aniqlash (monitoring qilish) murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun bevosita kuzatuv va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan nazoratning birgalikdagi shakllari talab etiladi. Qolaversa, qurilma tugallanmasdan aniqlashda qo'llanadigan "ijtimoiy nazorat" (Romano et al., 2021) ham aksar holatlarda samarasiz bo'ladi. Bunga qurilma egasi bilan oraga sovuqchilik tushishi, keyinchalik qasos olinishidan qo'rqish sabab hisoblanadi. O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish bilan bog'liq qarorlar ayrim hollarda fuqarolarning uy-joysiz qolishiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa mazkur masalaning nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Sudlar bunday nizolarni ko'rib chiqishda faqatgina qurilish normalari buzilganini emas, balki qarorning ijtimoiy oqibatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Xususan, ayrim hollarda imoratni to'liq buzish o'rniga uni qonunchilik talablariga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Qonun talablariga nomuvofiq qurilgan bino-inshootni tartibga solishda qurilish normalari (shaharsozlik normativ qoidalari) muhim ahamiyat kasb etadi. Qonuniy qurilishning talablaridan biri ham aynan jarayonning to'liqligicha ushbu qoidalarga zid bo'lmasligi hisoblanadi. Amaliyotdagi ayrim nizolar orasida qurilish boshlangandan so'ng bunday qoidalar, himoya zonalarining, umumiy foydalanish hududlari chegaralarining (qizil chiziqlar) yoki yer uchastkasiga egalik qilish hamda foydalanishga nisbatan berilgan

hujjatlarning (aksariyatida sobiq hokim qarorlari yangisining kelishi bilan bekor qilinishi) o'zgarishiga ham guvoh bo'lamiz. Bunday holatlarda qurilishi boshlangan binoning huquqiy rejimi qanday bo'lishi borasida ham qonunchilikda aniq huquqiy tushuntirishlar mavjud emas.

Masalaning yagona huquqiy yechimi qonunchilikning vaqt bo'yicha amal qilishiga borib taqaladi. Fikrimizcha, nizolarning oldini olish, masalani adolatli hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi obyektini qonuniy ravishda qurish yoki rekonstruksiya qilish boshlanganidan keyin qurilishga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi (masalan, yer uchastkasining huquqiy rejimiga rioya qilingan holda obyekt qurilishi boshlanganidan so'ng umumiy foydalanish hududlari chegaralari – qizil chiziqlar belgilanishi) bunday qurilmani o'zboshimcha qurilish deb e'tirof etish uchun asos bo'la olmasligi haqida umumiy ko'rsatmalarni berishi lozim.

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar muammosi ko'plab davlatlarda uchraydi va ularni tartibga solish mexanizmlari turli huquqiy yondashuvlarga asoslanadi. Ayrim davlatlarda bunday imoratlarni buzish asosiy choraga aylangan bo'lsa, boshqa davlatlarda imoratni qonunchilik talablariga moslashtirish yoki ma'lum shartlar asosida legallashtirish mexanizmlari ham qo'llanadi. Xorijiy tajribani o'rganish mazkur institutni takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Angliya tajribasi

Angliya huquqida qurilish faoliyati asosan shaharsozlik va hududiy rejalashtirish normalari orqali tartibga solinadi. Qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli ruxsatnoma (*planning permission*) olish majburiy hisoblanadi. Agar bino yoki inshoot tegishli ruxsatnomasiz qurilgan bo'lsa, vakolatli organlar tomonidan unga nisbatan majburiy choralar qo'llanishi mumkin. Angliya amaliyotida bunday holatlarda odatda "*enforcement notice*" deb ataladigan rasmiy ogohlantirish beriladi (United Kingdom, 1990). Bunday ogohlantirish bizning amaliyotimizdagi Kadastr agentligi hududiy bo'limlari tomonidan beriladigan *yozma ko'rsatma* shakliga mos keladi. Ushbu ogohlantirish orqali imorat egasiga qonun buzilishini bartaraf etish uchun ma'lum muddat beriladi. Agar mazkur talab bajarilmasa, vakolatli organlar imoratni buzish yoki uni qonunchilik

talablariga moslashtirish choralarini qo'llashi mumkin.

Shuningdek, Angliya qonunchiligida o'zbo-shimchalik bilan qurilgan imoratlar bo'yicha mu-ayyan muddat o'tganidan so'ng davlat organlari tomonidan da'vo qo'zg'atish imkoniyati cheklana-di. Bu esa mulk munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Germaniya tajribasi

Germaniya huquqida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar masalasi qurilish huquqi doirasida tartibga solinadi. Germaniya qonunchi-ligida qurilish faoliyati qat'iy ruxsatnoma tizimi asosida amalga oshiriladi va qurilish normalariga rioya etilishi ustidan kuchli nazorat o'rnatilgan.

Shuningdek, Germaniya amaliyotida o'zboshim-chalik bilan qurilgan imoratlarni darhol buzish har doim ham asosiy chora sifatida qo'llanmaydi. Agar imoratni mavjud shaharsozlik talablariga mos-lashtirish mumkin bo'lsa, ushbu imkoniyat ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga, ortiqcha moddiy yo'qotish-larning oldini olishga xizmat qiladi.

Germaniya qonunchiligining yana bir ijobiy jihati bino buzilishi munosabati bilan undagi shaxslarning uy-joy hamda ish joyi bilan ta'min-lanish choralarining belgilanganligidir. Jumladan, Germaniya Qurilish kodeksining (*Baugesetzbuch*) 179-moddasiga ko'ra, turar joyga nisbatan buzish qarori faqat buzish amalga oshirilayotgan vaqtda yashovchilar uchun maqbul sharoitlarda yetarli muqobil turar joy mavjud bo'lgandagina ijro etilishi mumkin (Federal Republic of Germany, 1997). Agar asosan tijorat yoki kasbiy faoliyat uchun foydalaniladigan bino (ish joyi) egasi bosh-qqa joyga ko'chishni ko'zlagan bo'lsa, qaror buzish vaqtda maqbul sharoitlarda boshqa mos ish joyi mavjud bo'lgandagina ijro etilishi lozim.

Bundan tashqari, Germaniya huquqida quri-lish jarayonining dastlabki bosqichlarida nazorat mexanizmlari juda samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu o'zboshimchalik bilan qurilishlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Italiya tajribasi

Italiyada ham o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan qat'iy choralar qo'llanadi. Qurilish ishlari tegishli ruxsatnomalarsiz amalga oshirilgan hollarda vakolatli organlar tomonidan imorat egasiga qonun buzilishini bartaraf etish uchun muayyan muddat beriladi.

Agar ushbu muddat ichida imorat egasi tomonidan qonun buzilishi bartaraf etilmasa, imoratni buzish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ayrim hollarda esa imoratni qonunchilik talabla-riga moslashtirish yoki ma'lum shartlar asosida legallashtirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilishi mumkin (Romano et al., 2017).

Italiya tajribasining yana bir muhim jihati shundan iboratki, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jarimalar ham keng qo'llanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan qo'llanadigan choralar turli huquqiy yondashuvlarga asoslanadi. Biroq aksa-riyat davlatlarda bunday imoratlarga nisbatan faqatgina buzish chorasi qo'llanmaydi. Aksincha, imoratni qonunchilik talablariga moslashtirish yoki ma'lum shartlar asosida legallashtirish im-koniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Masalan, Germaniya amaliyotida imoratni buzish oxirgi chora sifatida qo'llanadi va agar imoratni qonunchilik talablariga moslashtirish imkoniyati mavjud bo'lsa, avvalo, ana shu imko-niyat ko'rib chiqiladi. Angliya qonunchiligida esa o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat egasiga qonun buzilishini bartaraf etish uchun ma'lum muddat berilishi amaliyoti keng qo'llanadi. Shu-ningdek, ayrim davlatlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolar uchun aniq da'vo muddatlari belgilangan.

Mazkur tajribalar O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish jarayonida ham katta ahamiyat-ga ega bo'lishi mumkin. Xususan, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni faqat buzish chorasi orqali hal etish o'rniga, ayrim hollarda ularni qonunchilik talablariga moslashtirish imkoniyat-larini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish amaliyotini tahlil qilish hamda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ushbu sohada bir qator normativ-huquqiy takomillashtirish choralarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Avvalo, o'zboshimchalik bilan qurilgan imo-ratlar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda huquqiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aniq da'vo muddatini belgilash maqsadga muvofiq. Amaldagi qonunchilikda bunday muddatning mavjud emasligi ayrim hollarda uzoq vaqt o'tga-

nidan so'ng ham imoratni buzish masalasi ko'tarilishiga olib kelmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish bo'yicha talablar uchun muayyan muddatni belgilash mulk munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan faqat buzish chorasi qo'llanishini nazarda tutuvchi yondashuvni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayrim hollarda imoratni to'liq buzish iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillarga zid bo'lishi mumkin. Shu sababli agar imoratni shaharsozlik va qurilish normalariga moslashtirish imkoniyati mavjud bo'lsa, bunday imkoniyatni qo'llashni nazarda tutuvchi mexanizmi joriy etish lozim.

Uchinchidan, o'zboshimchalik bilan qurilishlarning oldini olish maqsadida qurilish jarayoni ustidan davlat nazoratini kuchaytirish zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar qurilish jarayonining dastlabki bosqichlarida aniqlanmagani sababli keyinchalik jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois qurilish jarayonining ilk bosqichlaridayoq samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish bilan bog'liq qarorlar qabul qilinayotganda ularning ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur. Ayrim hollarda bunday qarorlar fuqarolarning uy-joysiz qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sudlar bunday nizolarni ko'rib chiqishda ijtimoiy omillarni ham inobatga olishi, zarur hollarda esa muqobil huquqiy yechimlarni qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar institutini ya-

nada samarali tartibga solish, sud amaliyotining bir xilda shakllanishini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar institutining huquqiy tartibga solinishi murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, u fuqarolik huquqi, yer huquqi hamda shaharsozlik huquqi normalarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida mazkur munosabatlar asosan Fuqarolik kodeksining 212-moddasi orqali tartibga solinadi. Biroq amaldagi qonunchilikda ayrim noaniqliklar mavjud bo'lib, bu holat o'zboshimchalik asosida qurilgan imoratlar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda turlicha yondashuvlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, mulk huquqini tan olish mexanizmining aniq mezonlari yetarli darajada belgilab qo'yilmagani, bunday nizolar uchun maxsus da'vo muddatining mavjud emasligi hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish chorasi ko'pincha ustuvor qo'llanayotgani mazkur institutni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlilidan esa ko'plab mamlakatlarda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan faqat buzish chorasi emas, balki imoratni qonunchilik talablariga moslashtirish yoki ma'lum shartlar asosida legallashtirish kabi mexanizmlar ham qo'llanishi ma'lum bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish jarayonida xorijiy tajribani inobatga olish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni tartibga solishda muvozanatli yondashuvni shakllantirish hamda sud amaliyotining bir xilda qo'llanishini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

- Aliverdieva, M. A. (2022). Samovolnaya postroyka: teoretiko-pravovoy aspekt [Unauthorized construction: theoretical and legal aspect]. *Law and Right*, (2), 93–95. <https://doi.org/10.24412/2073-3313-2022-2-93-95>
- Bevzenko, R. S. (2017). *Zemelny uchastok s postroykami na nyom: vvedenie v rossiyskoe pravo nedvizhimosti* [Land plot with buildings on it: An introduction to Russian real estate law]. M-Logos.
- Bevzenko, R. S. (2020). *Vvedenie v rossiyskoe pravo nedvizhimosti. Printsip edinstva sudbi prav na zemelny uchastok i na stroeniya na nyom* [Introduction to Russian real estate law. The principle of the unity of the fate of rights to a land plot and to buildings on it]. M-Logos.

Federal Republic of Germany. (1997). *Federal Building Code*. Bundesgesetzblatt. <https://www.lexadin.nl/wlg/legis/nofr/eur/arch/ger/Federal-Building-Code.pdf>

Gazeta.uz. (2025). *Samarqandda mashhur 12 qavatli mehmonxonani buzish bo'yicha ishlar boshlandi* [Demolition of a famous 12-story hotel has begun in Samarkand]. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/28/hotel-samarkand/>

Hakami, M. H. H. (2024). Building violations affecting the ownership of others in the Saudi system and the position of Islamic jurisprudence. *International Journal of Religion*, 5(7), 171–177. <https://doi.org/10.61707/d1kt6n19>

Kondratyuk, D. L. (2022). Samovolnaya postroyka: problemy opredeleniya yuridicheskoy sudbv [Unauthorized construction: Problems of determining the legal fate]. *Education and Law*, (3), 412–417. <https://doi.org/10.24412/2076-1503-2022-3-412-417>

Kun.uz. (2022). *Samarqanddagi noodatiy mehmonxonani buzishga xulosa berildi. Tadbirkor qurilishga 3 million dollar sarflaganini aytmoqda* [A verdict has been given to demolish an unusual hotel in Samarkand. The businessman says he spent \$3 million on the construction]. <https://kun.uz/37866789>

Kun.uz. (2024, October 24). *Global Rule of Law Index 2024: Uzbekistan slips to 83rd position*. <https://kun.uz/en/news/2024/10/24/global-rule-of-law-index-2024-uzbekistan-slips-to-83rd-position>

Kurbanova, X. Ya. (2022a). O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning huquqiy (xorij tajribasi) [Legal status of unauthorized buildings (foreign experience)]. *Rights and Duties*, (11), 34–39.

Kurbanova, X. Ya. (2022b). O'zboshimchalik bilan qurilgan imorat [Unauthorized building]. *Fair Trial*, (6), 39–42.

Oqyulov, O., Yuldashev, J. I., & Imomov, N. F. (2025). *Fuqarolik huquqiga kirish* [Introduction to civil law]. TSUL Publ.

Republic of Uzbekistan. (1997). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111189>

Romano, B., Zullo, F., Fiorini, L., & Marucci, A. (2017). Land transformation of Italy due to half a century of urbanisation. *Land Use Policy*, 67, 387–400. <https://doi.org/10.1016/j.landusepol.2017.06.006>

Romano, B., Zullo, F., Fiorini, L., & Marucci, A. (2021). Illegal building in Italy: Too complex a problem for national land policy? *Cities*, 115, Article 103159. <https://doi.org/10.1016/j.cities.2021.103159>

Russian Federation. (1994). *Civil Code of the Russian Federation*. Garant. <https://base.garant.ru/10164072/>

The Heritage Foundation. (2026). *Uzbekistan: Index of economic freedom*. <https://economicfreedom.heritage.org/pages/country-pages/uzbekistan>

United Kingdom. (1990). *Town and Country Planning Act 1990*. Legislation.gov.uk. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/8>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2).